

JISMONIY SHAXSLARNING PUL MABLAG‘LARINI ISHONCHLI BOSHQARISH SHARTLARI

1	Mahsulot nomi	Ishonchli boshqarish
2	Mahsulot turi	Mablag‘larni ishonchli boshqarish
3	Hisob valyutasi	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so‘m
4	Qo‘yilma miqdori	Minimal miqdor – 1 million so‘m; Maksimal miqdor cheklanmagan.
5	Qo‘yilma obyekti	Tadbirkorlik subyektlari biznesini milliy valyutada muddatli to‘lov asosida moliyalashtirish
6	Ishonchni boshqarish muddati	3, 6, 9, 12 oy
7	Qo‘shimcha badallar	Ishonchli boshqarish hisobvarag‘iga qo‘shimcha badallar kiritish imkoniyati mavjud
8	Qisman yechib olish	Ishonchli boshqarish hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini qisman yechib olish mumkin emas
9	Daromadlilik darajasi	<p>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘idagi qo‘yilmalarning daromadlilik darajasi moliyaviy aktivlarga investitsiya qilishdan olingan daromaddagi Mijozning (boshqaruv muassisi) ulushi sifatida hisoblanadi.</p> <p>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘i bo‘yicha daromad har oy hisobot oyi yakuni bo‘yicha hisoblanadi.</p> <p>Mijozning (boshqaruv muassisi) ulushi ishonchli boshqarish muddati va qo‘yilma miqdoriga asosan, 365 kunlik davr hisobidan kelib chiqib hamda Bank tomonidan shakllantirilgan maxsus zaxira fondlariga ajratmalarni hisobga olgan holda aniqlanadi.</p>

		<p>Mijozning ulushi har oy hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha to'lanadi. Agar to'lov sanasi dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, to'lov keyingi ish kuniga ko'chiriladi.</p> <p>Mijoz tomonidan olinmagan daromad alohida hisobvaraqqa o'tkaziladi va ishonchli boshqaruvdagi mablag'lar miqdoriga qo'shilmaydi.</p>
10	Mijozning (boshqaruv muassisining) daromaddagi ulushi	<p>Mijozning (boshqaruv muassisining) daromaddagi ulushi quyidagicha belgilanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 3 oygacha – 0% • 3 oy – 66% • 6 oy – 68% • 9 oy – 70% • 12 oy – 72%
11	Mijozga (boshqaruv muassisiga) qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar
12	Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish	<p>Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochish uchun Mijoz "Openbank mobile" mobil yoki veb-ilovasida ro'yxatdan o'tishi kerak.</p> <p>Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini ochishdan oldin Mijoz Bankning mobil yoki veb-ilovasi orqali yuridik va jismoniy shaxslar bilan pul mablag'larini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish uchun mo'ljallangan ommaviy oferta hamda ushbu ma'lumotdagi shartlar bilan tanishib chiqishi lozim.</p> <p>Ishonchli boshqarish hisobvarag'iga pul mablag'lari Mijozning bank kartasidan yoki masofaviy boshqariladigan hisobvarag'idan o'tkaziladi.</p>
13	Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini yopish	Ishonchli boshqarish hisobvarag'i muddati tugashi bilan yopilgan deb hisoblanadi. Mijoz (boshqaruv muassisi) ishonchli

		boshqarish hisobvarag'ini Bankni kamida 10 kun oldin xabardor qilgan holda muddatidan oldin yopishi mumkin.
14	Ishonchli boshqarish hisobvarag'ini muddatidan oldin yopish	<p>Ishonchli boshqarish hisobvarag'i muddatidan oldin yopilgan taqdirda, daromad ulushi mablag'larning ishonchli boshqarish hisobvarag'ida amalda saqlangan muddati asosida, shu muddat uchun belgilangan ulushga muvofiq qayta hisoblanadi.</p> <p>Agar daromad qayta hisoblangandan keyin uning miqdori boshqaruv muassisiga ilgari to'langan daromad miqdoridan kam bo'lsa, hosil bo'lgan tafovut summasi ishonchli boshqarish mablag'laridan ushlab qolinadi.</p>